

**“TADBIRKORGA MADADKOR”**  
**volontyorlik loyihasi**

**NIZOMI**

## **1-BOB. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-sonli farmoni maqsadlarini amalga oshirishga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida PF-37-sonli farmoni amalga oshirishni amaliy ta‘minlash uchun “TADBIRKORGA MADADKOR” (keying o‘rinlarda - loyiha) volontyorlik loyihasining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va mas’uliyatini, faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.
2. Loyiha tadbirkorlik faoliyatini yaqinda boshlagan yoki boshlayotgan kichik biznes va tadbirkorlik (fermer) subyektlariga bepul tarizda moliyaviy xisob-kitoblarni amalga oshirishda, xuquqiy tomondan maslaxat, tavfsiya berish bilan amaliy yordam beruvchi loyihadir.
3. Loyiha ishtirokchilari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, ushbu Nizom va boshqa normativ hujjatlariga amal qiladi.
4. Loyiha volontyorlik loyihasi bo`lganligi uchun loyiha qatnashuvchilari ixtiyoriy ravishda hech qanday moddiy ta`minotsiz bo`sh vaqtlarida qatnashishadi.
5. Loyiha qatnashuvchilari 18 yoshdan yuqori bo`lishlari va kirishayotgan mutaxassligi bo`yicha ma`lumotga ega bo`lishlari talab etiladi.
6. Loyiha qatnashuvchilari Yoshlar ishlari agentligi huzurida amalga oshiriladi. Loyihaga hamkor sifatida boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorlik qilishlari mumkin.
7. Loyiha faoliyatini nazorat qilib borish Yoshlar ishlari agentligi boshqarma boshliqlarining o`rnbosari nazorat qiladi.
8. Loyiha ishtirokchilari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan va hamkor boshqa tashkilotlar tomonidan moddiy yoki boshqa ko`rinishdagi holda rag`batlantiriladi.

## **2-BOB.Loyihaning asosiy vazifalari**

9. Loyihaning asosiy vazifasi:
  - Loyiha qatnashuvchilari berilgan subyektning sirini saqlashga;
  - Loyiha bo`yicha tadbirkorlarga to`g`ri va aniq ma`lumot berishi;
  - Vaqtida soliq va boshqa hisobotlarni shaxsiy kabinet orqali berishga;
  - Tadbirkor bilan uzviy aloqalarni bog`lashga;

- Agar tadbirkorlik subyektining oylik aylanmasi hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan oshgan taqdirda tadbirkorni loyihadan chiqarishga;
- Tadbirkor agar o`z ixtyori bilan loyihaga ma`lum kelishilgan oylik to`lov to`lagan taqdirda ya`ni eng kam oylik ish haqqining 1 baravari miqdorida o`tkazganda loyihaga davom etirishini ta`minlashga;
- Loyerha sifatini ta`minlashga va berilayotgan savollarga to`g`ri, aniq javob berishga;
- Nizom va buyruqlarga ko`ra boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

### **3-BOB. Loyihaning huquq va javobgarligi**

**10.** Loyerha quyidagi huquqlarga ega:

- tadbirkorlardan, soliq idoralar va boshqa tashkilotlardan loyihaga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan hujjatlarni, statistika, tahliliy va boshqa ma'lumotlarni belgilangan tartibda bepul asosda so'rash va olish;
- loyerha rahbari sifatida belgilangan shaxs barcha loyerha qatnashuvchilari to`g`risida Yoshlar ishlari agentligiga har oyda bir marta hisobot topshirishi;
- loyihada qatnashayotgan tadbirkorlar bilan uzviy hamkorlik qilib tadbirkorligini rivojlantirishga yordam berishga;
- shartnomaga asosida hamkorlik qilayotgan tadbirkorlarni uch oyda bir marotaba yig`ish va savollariga javob berishga;
- faqat davlat ro`yxatidan o`tgan tadbirkorlik subyektlariga yordam berishga;
- Yoshlar ishlari agentligi rahbaryati buyruqlarini bajarishga;

**11.** Loyerha o`ziga yuklangan vazifa va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

### **4-BOB. Loyihaning tuzilmasi**

**12.** Loyihaning amalga oshirish jarayonlarida mashg`ul bo`lgan asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Loyerha rahbari;
- Loyerha menejeri;
- Loyerha huquqiy bo`limi;
- Loyerha moliya bo`limi;
- Loyerha bughalteriyasi;

## **5-BOB. Loyiha faoliyatini tashkil etish**

**13.** Loyihani to`g`ri amalga oshirishga loyiha rahbari direktorlik qiladi.

Loyiha direktori to`g`ridan-to`g`ri Yoshlar ishlari agaentligi Boshqarma boshliqi va boshqarma boshliqining birinchi o`rinbosariga bo`ysunadi.

Loyiha direktori loyiha qatnashuvchilariga javobgar hisoblanadi.

**14.** Loyihani faoliyatini tashkil qilishda Davlat xizmatlari markazi, ma`lum bank va yuridik tashkilotlar bilan uzviy hamkorlik yo`lga qo`yiladi.

## **6-BOB. Yakuniy qoidalar**

**15.** Loyihani tugatish va vazifalar qo`sishish Yoshlar ishlari agentligi rahbarining buyruqi bilan amalga oshiriladi.

**16.** Loyiha boshqa qo`shimcha harakatlar amalga oshirish istagi bo`lgan holatda nizom va qaror bilan belgilangan holatda amalga oshiradi.